

2024-yil 9-oktabr

Ishlab chiqarish

Ishlab chiqarish

O'zbekiston kimyo sanoati so'nggi yillarda jadal rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Ushbu sohaning yuragi bo'lgan "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati esa nafaqat ishlab chiqarish va eksport salohiyati, balki innovatsiyalar, kadrlar salohiyatini rivojlantirish hamda ijtimoiy mas'uliyat sohalarida ham yetakchi tashkilot sifatida faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda tarmoqda 170 dan ziyod turdagi kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqariladi.

AJ "O'zkimyosanoat" tarkibiy bo'linmalari xodimlari tomonidan kriogen texnologiyasi, elektroximiya, flotatsiya jarayoni hamda rezina-texnika mahsulotlari, jumladan, avtomobil shinasi, qishloq xo'jaligi texnikasi uchun shina va transporter lentalarini ishlab chiqarish sohalarida zamonaviy usullar muvaffaqiyatli o'zlashtirildi.

Bundan tashqari, metilxlorid, quruq sianidlar va uksus kislotasi kabi yuqori likvidli mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish ishlari olib borilmoqda. Yangi texnologiyalarni o'zlashtirish jarayonida lokalizatsiya qilingan mahsulotlar assortimenti kengayib bormoqda. So'nggi yillarda AJ "O'zkimyosanoat" tomonidan ishlab chiqarishni lokalizatsiya qilish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilib, natijada 20 dan ortiq yangi turdagi mahsulotlar o'zlashtirildi.

Jahon amaliyoti shundan dalolat beradiki, sanoat ishlab chiqarishi atrof-muhit va ekologik holatga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, kompaniyamizda uglerod izini qisqartirish va ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarini minimallashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi paytda fosfogips texnogen chiqindilarini qayta ishlash orqali sulfat kislota va sement olish ishlari olib borilmoqda. Bu fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish jarayonini yopiq siklga o'tkazish va atrof-muhitga bo'lgan ekologik yuklamani sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

Kimyo sanoati rivojining keyingi bosqichi yuqori malakali kadrlarsiz mumkin emas. Shu munosabat bilan AJ "O'zkimyosanoat" mutaxassislarini tanlash va tayyorlashni amalga oshirmoqda, ularni dunyodagi yetakchi universitetlarga o'qishga yuborib, kelajak kadrlarini tayyorlash uchun har tomonlama kasbiy rivojlanishini ta'minlamoqda.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar yo'nalishiga qarab, ishlab chiqarish quvvatlari quyidagi majmualarga shartli ravishda bo'linadi:

- murakkab va oddiy mineral o'g'itlar hamda noorganik moddalar, shuningdek, tog'-kon va kimyo sanoati uchun reagentlar ishlab chiqarish;
- organik birikmalar, sintetik tolalar va polimer materiallar ishlab chiqarish;
- kalsinatsiya qilingan soda va boshqalarni ishlab chiqarish.

Jamiyat tarmog'i bo'ylab kimyo mahsulotlarini yillik ishlab chiqarish hajmi 8,0 mln tonnadan ziyodni tashkil etadi. Shundan 3 mln tonnadan ortig'i mineral o'g'itlar hissasiga to'g'ri keladi. Ishlab chiqarilayotgan asosiy mahsulotlar quyidagilardan iborat: ammiak, ammiakli selitra, karbamid, ammos, superfosfat, ammoniy sulfati, NPK o'g'itlari; ammiak, nitrat kislotasi, sulfat kislotasi, natriy nitrat, siantuzlari, tiomochevina; kaustik soda, kalsinatsiyalangan soda, metanol, polivinilxlorid (PVX), poliakrilamid va boshqa mahsulotlar.

AJ "O'zkimyosanoat" innovatsion yechimlarni joriy etish, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish, mutaxassislarini tayyorlash va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ham faol ish olib bormoqda.

Hozirgi vaqtda jamiyat tomonidan ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, raqobatbardoshlikni oshirish va yuqori texnologiyali uskunalarni joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.





Ekologiya

Bugungi kunda kimyo tarmog'i korxonalarida bir yilda o'rtacha 3 turdagi chiqindilar hosil bo'ladi. Ular - atmosferaga tashlamalar, qattiq chiqindilar va oqova suvlar.

Ekologiya va "yashil" iqtisodiyot bo'limi "Uzkimesanoat" AJ tarmoq korxonalarida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan faoliyat olib boradi. Hususan

- Atmosferaga tashlamalarni qisqartirish;
- Oqova suvlar tashlamalarini qisqartirish;
- Texnik va ichimlik suvlarni iqtisod qilish;
- Chiqindilarni hajmini kamaytirish;
- Hosil bo'lgan chiqindilarni utilizatsiya qilish
- Ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish;
- Doimiy ravishda chora-tadbirlar ishlab chiqqan holda atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish bo'yicha ishlar olib boradi, korxonalarni ekologiya sohasida qonunchilik talablariga rioya qilishi ustidan doimiy nazorat olib boradi.

Germaniya halqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) va nitrat kislotasi chiqindi gazlari bilan bog'liq iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish guruhi (NACAG) bilan birgalikda N₂O azot oksidi gazini kamaytirish loyihalari bo'yicha - loyihalar Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) tomonidan grant asosida amalga oshiriladi.

Nitrat kislotasi chiqindi gazlari bilan bog'liq iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish guruhi - NACAG bilan birgalikda azot oksidi N₂O gazini kamaytirishga erishiladi.

Xalqaro talablarga integratsiya qilish va issiqxona gazlarini hisobini yuritish bo'yicha Germaniyaning

GIZ kompaniyasi tomonidan "O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida issiqxona gazlari tashlamalarini tartibga solish va uglerodli soliq mexanizmi (CBAM) bo'yicha muntazam ravishda o'quv mashg'ulotlari o'tkazilmoqda.

Issiqxona gazlari tashlamalarini tartibga solish va uglerodli soliq mexanizmi (CBAM) doirasida xalqaro yetakchi kompaniya va tashkilotlar bilan muzokaralar olib borilmoqda.

Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi "yashil" iqtisodiyot loyihalari markazi" va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Hidrometeorologiya markazi bilan hamkorlikda issiqxona gazlarini aniqlash, hisoblash va xatlovdan o'tkazish bo'yicha yagona (xalqaro yoki respublika miqyosida kuchga ega) qo'llanma (metodika) ishlab chiqilishi bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 30-dekabrda PF-46-son Farmoni ijrosi yuzasidan "O'zkimyosanoat" AJ hamda uning tarmoq korxonalarida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida, mazkur Farmon kuchga kirgan kundan boshlab, jamiyat tarmoq korxonalarini tomonidan muntazam ravishda (milliy dastur) qabul qilinib, jami 2,7 mln. dona manzarali va mevali daraxt hamda buta ko'chatlari 235 gektar yerga ekildi.

Sanoat xavfsizligi

"O'zkimyosanoat" AJning sanoat xavfsizligi sohasidagi faoliyati noxush hodisalarning oqibatlarini bartaraf etish choralaridan oldin korxonaning xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sodir bo'lgan hodisalar va avariylarning oldini olish choralarini birinchi o'ringa qo'yishga qaratilgan - xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanishda sanoat xavfsizligining barcha talablariga javob berishga intilish.

O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 28-sentyabrdagi "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida" O'RQ - 57- son Qonuni va "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar haqida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 10-dekabrda 271-son qaroriga muvofiq tarmoq korxonalarida quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

- xavfli ishlab chiqarish obyektlarining turini aniqlash va xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lgan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mulkiga va atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish maqsadida kimyo korxonalar identifikatsiya qilingan;

- xavfli ishlab chiqarish obyektida sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazoratini ta'minlash uchun ishlab chiqarishni nazorat qilish xizmatlari tashkil yetilgan;

- korxonalarda xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi deklaratsiyalari ishlab chiqilgan.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlari ishlab chiqarishni nazorat qilish xizmatlari tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

- tegishli ekspertizalarni o'tkazish orqali sanoat xavfsizligi holatini tahlil qilish;
- sanoat xavfsizligini oshirish va atrof-muhitga zarar yetkazilishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- qonun hujjatlarida va me'yoriy texnik hujjatlarda belgilangan sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini nazorat qilish;
- avariylarni oldini olishga qaratilgan ishlarni muvofiqlashtirish, avariylarni lokalizatsiya qilish va ularning oqibatlarini bartaraf yetishga tayyorgarlikni ta'minlash;

- zarur sinovlarni o'z vaqtida o'tkazilishini nazorat qilish va ishlatiladigan texnik qurilmalarning texnik tekshiruvlari xavfli ishlab chiqarish obyektlarida nazorat o'lchov vositalarini ta'mirlash va tekshirish;

- ishlab chiqarish tartibini nazorat qilish va unga amal qilish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 oktyabrdagi "Sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazish va ekspertiza xulosasini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 784-sonli qaroriga muvofiq sanoat xavfsizligi sohasidagi korxonalar va ekspert tashkilotlar o'rtasida texnik qurilmalarni (bosim ostidagi idishlar, ko'tarish mexanizmlari, qozon uskunalari, texnologik quvurlar) kompleks tekshirish uchun, shuningdek, xavfli ishlab chiqarish obyektlarni qurilish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnik qayta jihozlash, saqlash va tugatish bo'yicha loyiha hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish bo'yicha shartnomalar tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi Davlat qo'mitasining "Konteksnazorato'quv" o'quv markazlarida xavfli ishlab chiqarish obyektlarida band bo'lgan rahbarlar, mutaxassislar va boshqa ishchilarning xavfsiz ishlashini ta'minlash bo'yicha o'qitish va bilimlarni sinovdan o'tkazish amalga oshiriladi.

Sanoat xavfsizligi sohasidagi siyosat

"O'zkimyosanoat" AJ sanoat xavfsizligi sohasidagi faoliyatining asosiy maqsadi xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi avariya va ularning oqibatlaridan shaxslar va jamiyatning hayotiy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash deb hisoblaydi.

"O'zkimyosanoat" AJning sanoat xavfsizligi sohasidagi vazifalari quyidagilardan iborat:

- noxush hodisalar va avariya xavfi minimal bo'lgan xavfli ishlab chiqarish obyektlarini ishlatadigan korxonalarda sanoat xavfsizligi darajasini ta'minlash;

- xavfli ishlab chiqarish obyektlarining xavfsiz ishlashini ta'minlash, noxush hodisalar va avariya oldini olish hamda bo'linmalarining xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi noxush hodisalar va avariya oqibatlarini lokalizatsiya qilish va bartaraf etishga tayyorligini ta'minlash;

- xavfli ishlab chiqarish obyektlarida noxush hodisalar va avariya olib kelishi mumkin bo'lgan texnik qurilmalarning ishdan chiqishi yoki shikastlanishini hamda sanoat xavfsizligi sohasidagi texnik hujjatlar bilan tartibga solinadigan rejimlardan chetga chiqishni oldini olish uchun profilaktik tizimini yaratish orqali xavfli ishlab chiqarish obyektlarini ishlatadigan korxonalarining barqaror ishlashi va rivojlanishi uchun sharoit yaratish;

- xavfli ishlab chiqarish obyektlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan avariya oqibatida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik zararni kamaytirish;

- barcha manfaatdor tomonlar bilan muloqot o'tkazish va sanoat xavfsizligi sohasida "O'zkimyosanoat" AJ ko'rsatkichlarining ochiqqligi va erkin foydalana olish imkoniyatini ta'minlash, ushbu ko'rsatkichlar cheklangan ma'lumotlarga yega bo'lgan hollar bundan mustasno.

"O'zkimyosanoat" AJ xavfli ishlab chiqarish obyektlarini ekspluatatsiyasi bilan bog'liq faoliyat natijalarining mumkin bo'lgan salbiy namoyon bo'lishi uchun o'z mas'uliyatini tushunib, ko'rsatilgan faoliyatni noxush hodisalar va avariya bo'lmagan amalga oshirish mumkinligiga va amalga oshirilishi lozimligiga ishonch bildiradi.

Fuqaro muhofazasi

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri - Fuqaro muhofazasi boshlig'i va "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining har yildagi buyruqlariga asosan jamiyat tarmoq korxonalarida fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar yo'nalishida bir qancha amaliy tadbirlar olib borilmoqda.

Sanoat xavfsizligi, favqulodda vaziyatlar va mehnat muhofazasi bo'limi "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida favqulodda vaziyatlarni oldini olish va fuqaro muhofazasi talablarini bajarishga qaratilgan faoliyat olib boradi, jumladan:

- rahbar va ishchi xodimlarni fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlashga hamda favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va ularni barvaqt aniqlashga qaratilgan dasturlar bo'yicha o'qitish;
- obyekt tezkor xizmatlari va fuqaro muhofazasi tuzilmalari shayligini ta'minlash hamda nazorat qilish;
- fuqaro muhofazasi tuzilmalari va obyektlar tezkor xizmatlarini favqulodda vaziyatlarga shayligi bo'yicha davriy attestatsiyadan o'tkazish;
- obyektlarda texnogen, tabiiy va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar, avariya sodir bo'lganida aholiga xabar berishni avtomatlashtirilgan tizimi shayligini nazorat qilish;
- korxonalar yon atrofida joylashgan aholi, muassasa va tashkilotlar mutaxassislarini obyektida sodir bo'lgan avariya va noxush hodisalarda to'g'ri harakatlanish qoidalariga korxonalar fuqaro muhofazasi xizmatlari tomonidan o'rgatishni tashkillash va nazorat qilish;

- Hukumat komissiyasi tomonidan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga va ularni barvaqt aniqlashga qaratilgan tadbirlarda ishtirok etish;

- doimiy ravishda favqulodda vaziyatlarni barvaqt aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqqan holda korxonalarda fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar sohasidagi qonunchilik talablariga rioya qilishi ustidan doimiy nazorat olib borish.

Fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar sohasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar:

- tarmoq korxonalarida fuqaro muhofazasi tuzilmalari ko'rikdan o'tkazilib, obyekt hududida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni inobatga olgan holda shahar va tuman Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi xizmatlari bilan hamkorlikda 2 ta maxsus-taktik o'quv mashqlari o'tkazildi;
- O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2025-yil 17-maydagi Respublikada yong'inlarni oldini olishga qaratilgan "Dolzarb 30 kun" profilaktika tadbirini o'tkazish to'g'risida"gi 173-son farmoyishi ijrosi yuzasidan tarmoq korxonalarida buyruq va chora tadbirlar ishlab chiqildi, mazkur tadbir doirasida 7 ta amaliy mashqlar va 4 ta seminar o'tkazildi;

- O'zbekiston Respublikasi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasiga yuklatilgan topshiriqlar bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi asosida tarmoq korxonalarida buyruq, harakatlar rejasi va chora-tadbirlar ishlab chiqildi;

- tarmoq korxonalarida Sanoat xavfsizligi, Yong'in o'chirish xizmati, korxonalar rahbar xodimlari hamda tezkor xizmatlari mutaxassislaridan iborat bo'lgan komissiya a'zolari ishtirokida 85 ta profilaktik tadbirlar o'tkazilib aniqlangan kamchiliklar yuzasidan bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqildi;

- barcha tarmoq korxonalarida sanoat xavfsizligi sohasida muhandis-texnik xodimlarning bilimlari tizimli ravishda oshirilishi tashkil etilib 78 nafar muhandis-texnik xodimlar "Sanoatkontexo'quv" DMda va Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari qoshidagi Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv marakzlarida 28 nafar rahbar xodimlar o'qitildi;

- ehtimoliy avariya oqibatlarini tugatish bo'yicha harakatlarga tayyorligi yuzasidan avariya sodir bo'lgan holda bartaraf etish rejasi asosida korxonalar tezkor xizmatlari ishtirokida tarmoq korxonalarida 55 ta o'quv amaliy mashqlar va 65 ta nazariy seminarlar o'tkazildi.

"O'z kimyo sanoati" AJ tomonidan fuqaro muhofazasi sohasida doimiy ravishda ishlar olib borilmoqda.





source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/production>